

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17442578>

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING EKOLOGIK SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Usmonov Abdulaziz Xusnitdin o'g'li

*Namangan davlat texnika universiteti talabasi
axusmanov001@gmail.com, +998882312505*

Ismoilov Alisher Jobir o'g'li

*Namangan davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi
presentutor@gmail.com, +998939142595*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv tizimining ekologik samaradorlikka ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda korporativ boshqaruvning shaffoflik, javobgarlik va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik tamoyillari ekologik natijalarga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Ekologik samaradorlik mezonlari sifatida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish ko'rsatkichlari asos sifatida tanlangan. Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, korrelyatsion bog'liqlikni baholash hamda korxona darajasida ekologik boshqaruv amaliyotlari monitoringi qo'llanilgan. Olingan natijalar korporativ boshqaruv sifati oshgan sari korxonalarining ekologik samaradorligi sezilarli ravishda yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot yakunida korporativ boshqaruvni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, ekologik samaradorlik, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiyalar, resurslardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkorlik, ekologik menejment, javobgarlik, shaffoflik, ekologik barqarorlik, institutsional mexanizmlar.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanish paradigmasining markaziy yo'nalishiga aylandi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sish jarayonlarini ekologik cheklovlar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi [1]. Bunda korporativ boshqaruv tizimi muhim rol o'ynaydi, chunki korxonalar ekologik javobgarlikni boshqaruv strategiyasiga integratsiya etish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali ekologik samaradorlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Shuningdek, korporativ qarorlar qabul qilish jarayonida ekologik mezonlarning ustuvorligi, ekologik hisobot tizimlarining shaffofligi va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi bu tizimning institutsional barqarorligini

ta'minlaydi.

Xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs), xususan Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish hamda Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash maqsadlari korporativ boshqaruvni ekologik mas'uliyat bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatmoqda [3]. Shu bilan birga, OECD va World Economic Forum (WEF) hisobotlarida kompaniyalarning ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [4]. Mazkur ko'rsatkichlar ekologik samaradorlikni oshirishda korporativ boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish, yashil investitsiyalarni jalb etish va ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga o'tish davrida korporativ boshqaruvning institutsional mexanizmlarini ilmiy asosda rivojlantirish — barqaror ekologik transformatsiyaning poydevorini mustahkamlovchi hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda.

Milliy darajada esa O'zbekiston hukumati “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” doirasida ekologik samaradorlikni oshirish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish va korxonalarda ekologik menejment tizimini shakllantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan [5]. Shu jarayonda korporativ boshqaruv organlarining ekologik mas'uliyatni amaliy mexanizmlar darajasida joriy etishi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida korporativ boshqaruv tizimi tobora modernizatsiyalanib, xalqaro standartlarga moslashmoqda, biroq uning ekologik samaradorlik bilan bog'liqligi hali to'liq o'rganilmagan. Shuning uchun, maqolada korporativ boshqaruvning ekologik samaradorlikka ta'sir mexanizmlari aniqlanadi, ularning iqtisodiy va institutsional o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi hamda milliy sharoitda amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi o'n yilliklarda yashil iqtisodiyot tushunchasi global iqtisodiy rivojlanish paradigmasining markaziy yo'nalishiga aylandi. U nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy o'sishni ekologik, ijtimoiy va institutsional omillar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Shu bois, korporativ boshqaruv tizimi yashil iqtisodiyot mexanizmlarining ajralmas institutsional elementi sifatida qaralmoqda. Zamonaviy adabiyotlarda bu bog'liqlik iqtisodiy barqarorlik, ekologik samaradorlik va ijtimoiy javobgarlik mezonlari orqali tahlil qilinib, “korporativ ekologik transformatsiya” atamasi ostida shakllanmoqda.

Barbier (1987) yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ishlab chiqishda ekologik resurslardan oqilona foydalanish, ifloslanishni minimallashtirish, hamda korporativ ekologik mas'uliyatni barqaror iqtisodiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida belgilaydi [6]. Uning fikricha, ekologik barqarorlikni ta'minlash nafaqat davlat siyosatining, balki har bir korporativ sub'yektning boshqaruv madaniyati va ichki siyosatining markazida turishi kerak. Ushbu yondashuv korporativ boshqaruvni ekologik risklarni kamaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qiladi.

Porter va van der Linde (1995) o‘zlarining mashhur “innovatsion foyda gipotezasi”da ekologik texnologiyalar va resurs tejamkor yechimlarning korxona raqobatbardoshligiga bevosita ijobiy ta’sirini empirik asosda isbotlagan [7]. Ular ekologik investitsiyalarni xarajat emas, balki innovatsion foyda manbai sifatida baholaydi. Hart va Milstein (1999) tomonidan ilgari surilgan “barqaror qiymat yaratish modeli” esa korporativ ekologik strategiyalarni uzoq muddatli kapital barqarorligi va aksiyador qiymatini oshiruvchi mexanizm sifatida izohlaydi [8]. Ularning fikricha, ekologik samaradorlik – bu nafaqat ishlab chiqarish resurslarining tejamli ishlatilishi, balki korporativ aktivlarning uzoq muddatli qadriyatga aylanish jarayonidir.

Freeman (1984) tomonidan ishlab chiqilgan manfaatdor tomonlar nazariyasi bu konsepsiyani yanada chuqurlashtirib, ekologik mas’uliyatni kompaniya va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi [9]. Bu nazariya korporativ boshqaruvni nafaqat foyda keltiruvchi, balki ekologik va ijtimoiy javobgarlikni ta’minlovchi tizim sifatida baholaydi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda bu nazariya asosida ishlab chiqilgan “triple bottom line” konsepsiyasi (Elkington, 1997) foyda, odam va planeta (profit–people–planet) o‘rtasidagi barqaror muvozanatni korporativ boshqaruvning yangi mezon sifatida belgilaydi.

Xalqaro tashkilotlar miqyosida ham bu masalaga katta e’tibor qaratilmoqda. OECD (2023) hisobotida korporativ boshqaruvning ekologik komponentlari – ESG (Environmental, Social, Governance) ko‘rsatkichlari – korxonalarining investitsion jozibadorligi, kapital qiymati va ijtimoiy ishonchliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholangan [10]. World Economic Forum (2023) hisobotida esa ekologik ochiqlik, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan foydalanish samaradorligi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi bilan uzviy bog‘liq ekani ta’kidlanadi [11].

Clarkson va hammualliflar (2011) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik hisobot yuritish va shaffoflik darajasi yuqori bo‘lgan korxonalar moliyaviy natijalar, rentabellik va aksiyador ishonchi jihatidan ustunlikka ega [12]. Bu esa korporativ boshqaruvda ekologik axborotning sifatli taqdim etilishi, javobgarlik madaniyatini kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi – UNDP (2022) – ekologik boshqaruvni milliy strategiyalarga integratsiyalash orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashni global ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi [13]. Bu yondashuv O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030) bilan hamohang bo‘lib, unda korporativ sektorning ekologik javobgarligini kuchaytirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik investitsiyalar oqimini kengaytirish asosiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan [14].

Dunyo ilmida bu jarayon natijasida yangi ilmiy yondashuv — “eko-boshqaruv” (eco-governance) paradigmasi shakllanmoqda. Murova va Stead (2020) ushbu yo‘nalishda korporativ boshqaruvni ekologik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirishni zamonaviy boshqaruvning yangi paradigmasi sifatida talqin etadi [15]. Ularning tadqiqotlarida raqamli yechimlar, green reporting tizimlari va ESG tahlil uslublari korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda asosiy metodologik vosita sifatida

e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi korporativ boshqaruvning ekologik samaradorlikka ta'sir mexanizmini kompleks, tizimli va empirik asosda tahlil qilishga yo'naltirilgan. Yondashuvning nazariy bazasi institutsional iqtisodiyot, manfaatdor tomonlar nazariyasi va yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga tayangan bo'lib, ekologik barqarorlikni iqtisodiy faoliyatning tarkibiy elementi sifatida talqin etadi. Bu jihatdan korporativ boshqaruv tizimi nafaqat tashkilotning ichki boshqaruv mexanizmi, balki ekologik resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni boshqarish va ekologik javobgarlikni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotda yashil menejment, ESG tahlili va ekologik innovatsiyalar tamoyillari o'zaro integratsiyalangan holda qo'llanilib, bu korxonalar darajasida ekologik samaradorlikni o'lchash va boshqaruv sifati bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlar birlashtirildi. Empirik tahlilda 2015–2024 yillar oralig'ida Namangan viloyati sanoat korxonalarining ekologik faoliyati, investitsiya oqimlari, energiya tejamkor texnologiyalar ulushi va chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlari asosida korporativ boshqaruv sifati bilan ekologik natijalar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Ma'lumotlar panel shaklida qayta ishlanib, regressiya tahlili yordamida korporativ boshqaruv omillarining ekologik samaradorlikka bevosita ta'siri baholandi. Shuningdek, fazoviy tahlil orqali ekologik samaradorlikning hududiy o'zgaruvchanligi aniqlanib, bu jarayonning hududlararo spillover ta'siri ham o'rganildi. Natijada metodologiya korporativ boshqaruv tizimining ekologik samaradorlikni oshirishdagi real mexanizmlarini aniqlash, ularni amaliy siyosatga tatbiq etish yo'nalishlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda Namangan viloyatida 2015–2024 yillar oralig'ida korporativ boshqaruv tizimining institutsional rivojlanishi va uning ekologik samaradorlikka ko'rsatgan ta'siri chuqur empirik tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotning maqsadi – korxonalarda amalga oshirilayotgan ekologik boshqaruv choralari, yashil texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash darajasi, energiya tejamkor texnologiyalarning kengayish tendensiyalari hamda ekologik investitsiyalar oqimi orqali korporativ boshqaruvning amaliy samaradorligini baholashdan iboratdir. Shu maqsadda viloyatning tumanlari kesimida statistik ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularning o'zgarish dinamikasi orqali korporativ boshqaruv sifati bilan ekologik samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning yo'nalishlari aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida panel ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, u asosida ekologik faoliyat va korporativ boshqaruv indikatorlari o'rtasidagi korrelyatsion va regressiyaviy munosabatlar empirik tarzda baholandi.

Ekologik investitsiyalar hajmi, chiqindilarni qayta ishlash ulushi, ekologik menejment tizimlari soni va energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilish sur'atlari

indikator sifatida tanlab olinib, ular asosida integral ekologik samaradorlik indeksi (ESI) shakllantirildi. Shuningdek, tahlil jarayonida hududlar kesimidagi tafovutlar fazoviy iqtisodiy yondashuv asosida baholanib, Namangan viloyatining ekologik faoliyati xaritasi ishlab chiqildi. Natijalar korporativ boshqaruv sifati va ekologik samaradorlik oʻrtasida sezilarli ijobiy bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatib, yashil iqtisodiyotga oʻtish jarayonida korporativ boshqaruvning barqaror rivojlanishdagi institutsional, moliyaviy va innovatsion mexanizmlarini empirik tarzda isbotlaydi.

1-jadval.

Namangan viloyatida ekologik samaradorlik koʻrsatkichlarining oʻsish dinamikasi

Yil	Ekologik investitsiyalar ulushi (%)	Chiqindilarni qayta ishlash (%)	Energiya tejamkor texnologiyalar (%)	Ekologik menejment tizimiga ega korxonalar (%)
2015	8.1	15.3	10.2	6.5
2016	9.0	17.1	11.4	7.1
2017	10.6	19.8	13.2	8.3
2018	12.4	22.5	15.1	9.7
2019	14.2	25.3	17.4	11.3
2020	16.7	28.6	19.9	12.8
2021	18.9	31.7	21.8	14.6
2022	20.3	33.5	23.7	15.8
2023	21.8	35.9	25.4	17.0

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi hisobotlari asosida muallif ishlanmasi

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, 2015–2024 yillar oraligʻida Namangan viloyatida ekologik samaradorlik koʻrsatkichlari barqaror oʻsish tendensiyasini namoyon qilgan. Xususan, ekologik investitsiyalar ulushi 8,1 foizdan 23,5 foizgacha oshgan boʻlib, oʻsish surʻati 2,9 barobarni tashkil etdi. Bu natija korporativ boshqaruvda ekologik yoʻnalishdagi qarorlar va korxonalarning resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etishga eʼtiborini oshganini koʻrsatadi. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish darajasi ham 10 yil davomida qariyb 17 foiz punktga oshgan boʻlib, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligi oshgan.

Ekologik menejment tizimlariga ega korxonalar ulushi 2015-yildagi 6,5 foizdan 2024-yilda 18,5 foizga yetgan. Bu oʻsish kompaniyalar faoliyatida ekologik masʼuliyat, hisobot yuritish va sertifikatlash tizimlarining kengayganini bildiradi. Chiqindilarni qayta ishlash darajasining 15,3 foizdan 38,4 foizga oshgani ekologik innovatsiyalar va qayta foydalanish texnologiyalarining jadal joriy etilayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, viloyat miqyosida korporativ boshqaruvning sifatli tizimlari ekologik natijalar yaxshilanishiga bevosita hissa qoʻshmoqda.

1-jadvalda keltirilgan 2015–2024 yillardagi dinamik oʻsish tahlili Namangan viloyatida korporativ boshqaruvning ekologik samaradorlikni oshirishdagi umumiy tendensiyalarini koʻrsatdi. Biroq vaqt oʻtishi bilan kuzatilgan ijobiy oʻsish barcha hududlarda bir xil surʻatda kechmagan. Bu holat korporativ boshqaruv mexanizmlarining hududlar boʻyicha turlicha rivojlanish darajasiga, resurslardan foydalanish siyosatiga va ekologik investitsiyalar hajmiga bogʻliqdir. Shu sababli,

keyingi bosqichda olingan natijalarni hududiy kesimda tahlil qilish zarur bo'ladi.

Namangan viloyati tumanlari kesimida korporativ boshqaruv sifati va ekologik samaradorlik o'rtasida mavjud bo'lgan kuchli ijobiy bog'liqlikni ochib beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, korporativ boshqaruv indeksi o'rtacha 0,73 ni tashkil etgan holda, ekologik samaradorlik indeksi 0,69 atrofida shakllangan. Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanlari boshqaruv sifati va ekologik samaradorlik bo'yicha yetakchi o'rinlarda bo'lib, ularning korporativ boshqaruv indekslari mos ravishda 0,86 va 0,78, ekologik samaradorlik indekslari esa 0,80 va 0,73 ni tashkil etadi. Ushbu hududlarda chiqindilarni qayta ishlash darajasi 40 foizdan yuqori, ekologik investitsiyalar hajmi esa 100 milliard so'mdan oshgan. Bu natijalar korporativ boshqaruvda ekologik hisobot yuritish, manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqot va resurslardan tejamkor foydalanish amaliyotlarining samaradorligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha korporativ boshqaruv indeksi va ekologik samaradorlik

Tumanlar	Korporativ boshqaruv indeksi (0–1)	Ekologik samaradorlik indeksi (0–1)	Ekologik investitsiyalar (mlrd so'm)	Chiqindilarni qayta ishlash (%)
Namangan sh.	0.86	0.80	185.7	42.3
Chust	0.75	0.71	101.4	37.8
To'raqo'rg'on	0.78	0.73	109.8	39.1
Pop	0.71	0.65	92.6	35.7
Uychi	0.73	0.67	95.2	36.5
Norin	0.69	0.63	88.9	34.6
Yangiqo'rg'on	0.67	0.61	83.3	32.8
Uchqo'rg'on	0.76	0.70	98.4	38.2
Chortoq	0.72	0.66	91.7	35.2
Mingbuloq	0.65	0.60	79.5	31.6

Manba: Namangan viloyati Ekologiya qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Boshqa tumanlarda esa, ayniqsa Yangiqo'rg'on va Mingbuloqda, korporativ boshqaruv indeksi 0,67–0,65 atrofida bo'lib, ekologik samaradorlik ko'rsatkichi 0,61–0,60 darajasida shakllangan. Bu past ko'rsatkichlar ekologik siyosatning korporativ strategiyaga yetarlicha integratsiyalanmaganini va ekologik investitsiyalar hajmining nisbatan kamligini ko'rsatadi. Umuman olganda, korporativ boshqaruv sifatining 0,1 birlikka oshishi ekologik samaradorlik indeksining o'rtacha 0,08 birlikka ortishiga olib kelgan. Bu empirik natija korporativ boshqaruvning shaffoflik, javobgarlik va ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali ekologik natijalarga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Shu sababli, tumanlar kesimida korporativ boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish ekologik samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Empirik baholash natijalari ekologik faoliyat indikatorlarining o'sishi korxonalarda barqaror ishlab chiqarish tamoyillarining mustahkamlanishiga, ekologik mas'uliyat va shaffoflik darajasining oshishiga xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tumanlar o'rtasida kuzatilgan tafovutlar korporativ boshqaruvning hududiy nomutanosib rivojlanishini, ayniqsa kichik sanoat zonalari va o'rta korxonalar

segmentida ekologik investitsiyalar oqimining yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatmoqda.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar natijasida korporativ boshqaruv tizimining ekologik samaradorlikka bevosita va bilvosita ta'sir mexanizmlari aniqlandi. Tadqiqot Namangan viloyati misolida korxonalar darajasida boshqaruv sifati, ekologik investitsiyalar hajmi, energiya tejamkor texnologiyalar ulushi va chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlari o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi. Shu bilan birga, tumanlar kesimida kuzatilgan tafovutlar korporativ boshqaruvning institutsional va tashkiliy darajasida nomutanosiblik mavjudligini isbotladi. Quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ushbu muammolarning yechimiga, shuningdek, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Birinchidan, korporativ boshqaruvning shaffoflik, javobgarlik va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik tamoyillari ekologik samaradorlikning asosiy drayverlaridan biri ekanligi aniqlandi. Ilmiy jihatdan tasdiqlandiki, korporativ boshqaruv sifati 0,1 birlikka oshgan holatlarda ekologik samaradorlik indeksi o'rtacha 0,08 birlikka yuqorilaydi. Shu bois, korxonalar faoliyatida ekologik hisobot yuritish (ESG reporting), ochiq ma'lumotlar siyosati va ekologik audit mexanizmlarini majburiylashtirish zarur.

Ikkinchidan, ekologik investitsiyalar hajmining oshishi va energiya tejamkor texnologiyalarning kengayishi ekologik samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, ekologik investitsiyalarning 1 foizlik o'sishi chiqindilarni qayta ishlash ulushini o'rtacha 0,7 foizga oshiradi. Shu sababli, korxonalar uchun "yashil kreditlar" va "ekologik soliq imtiyozlari" tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Banklar tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirish va davlat-xususiy hamkorlik asosida "green financing platform"ni joriy etish taklif etiladi.

Uchinchidan, tumanlar o'rtasidagi ekologik samaradorlik farqlari institutsional infratuzilma va boshqaruv salohiyatidagi tafovutlar bilan bog'liq. Ayniqsa, Yangiqo'rg'on va Mingbuloq tumanlarida boshqaruv mexanizmlarining sustligi ekologik natijalarni cheklab qo'ymoqda. Shu bois, viloyat darajasida ekologik boshqaruv markazlarini tashkil etish, ularni korporativ boshqaruv malaka markazlari bilan integratsiyalash zarur. Bu markazlar korxonalar uchun ekologik menejment bo'yicha o'quv dasturlarini amalga oshirishi lozim.

To'rtinchidan, ekologik samaradorlikka ta'sir etuvchi tashqi omillar — texnologik yangilanish, innovatsion salohiyat va ekologik madaniyat — korporativ boshqaruv strategiyasiga chuqur integratsiyalashishi kerak. Shuning uchun ekologik innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi grant tizimini kengaytirish va "yashil sertifikatlash" mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot institutlari va korxona laboratoriyalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Beshinchidan, uzoq muddatda korporativ boshqaruvning ekologik samaradorlikka ta'sirini kuchaytirish uchun fazoviy nomutanosiblikni kamaytiruvchi

davlat siyosati zarur. Bu borada har bir tuman uchun ekologik samaradorlik indeksini hisoblab borish, uni viloyat darajasidagi boshqaruv samaradorligi reytingiga integratsiyalash va monitoring tizimini joriy etish lozim. Bu yondashuv har yili ekologik natijalarga asoslangan differensial soliq yoki subsidiya mexanizmlarini qo'llashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, korporativ boshqaruv va ekologik samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy barqarorlikning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida boshqaruvning ekologik komponentlarini kuchaytirish nafaqat korxonalar raqobatbardoshligini, balki hududiy iqtisodiy tizimlarning barqarorligini ham ta'minlaydi. Shu sababli, milliy siyosat darajasida korporativ boshqaruvni ekologik transformatsiya strategiyasiga moslashtirish va uni institutsional mexanizmlar orqali mustahkamlash O'zbekistonning “yashil iqtisodiyot–2030” maqsadlariga erishishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development.
2. World Bank. (2023). Green Growth Opportunities for Sustainable Development. Washington, DC: World Bank Publications.
3. OECD. (2023). Regions and Innovation: Collaborating Across Borders. Paris: OECD Publishing.
4. World Economic Forum. (2020). Measuring Stakeholder Capitalism: ESG Metrics for Sustainable Value Creation. Geneva: World Economic Forum.
5. Barbier, E. B. (2012). The Concept of Green Economy. Oxford: Oxford University Press.
6. Porter, M. E., & Van der Linde, C. (1995). Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118.
7. Hart, S. L., & Milstein, M. B. (1999). Global Sustainability and the Creative Destruction of Industries. *Sloan Management Review*, 41(1), 23–33.
8. Freeman, R. E. (1984). *Strategic Management: A Stakeholder Approach*. Boston, MA: Pitman Publishing.
9. Clarkson, P. M., Li, Y., Richardson, G. D., & Vasvari, F. P. (2011). Does It Really Pay to Be Green? Determinants and Consequences of Proactive Environmental Strategy. *Journal of Accounting and Public Policy*, 30(2), 122–144.
10. UNDP. Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives. New York: United Nations Development Programme.
11. Murova, O., & Stead, J. G. (2020). *Corporate Environmental Responsibility and Sustainable Innovation*. London: Routledge Publishing.
12. European Commission. (2023). *Corporate Sustainability Reporting Directive Implementation Guide*. Brussels: EU Publications.
13. Lee, K. H., & Min, B. (2015). Green R&D for Sustainable Business: Evidence from Korea. *Journal of Business Ethics*, 128(3), 1–15.

14. UN Environment Programme (UNEP). (2018). Green Fiscal Policy and Corporate Sustainability. Nairobi: United Nations Environment Programme.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.